

Hayoning Erkak Va Ayol O'rtasidagi O'xshash Va Tafavutini Ifodalanishi

*Ismoilova Himoyatxon A.*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada hayoning oila uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini tasvirlangan. Bunda erkak va ayol birdek mas'ul ekanligini diniy va badiiy manbalardan asosli ifodalab berilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy adabiyot, ayol obrizi, qatiyati va sabr-bordoshli, xotin-qizlar, tarbiya, ona siyomasi, burchlari, odob-axloq.

Bugungi kunda hayo degan so'zni faqat ayol kishiga tegishli deb tushunilib, erkaklar bu so'zga diqqat qilmaganlari kundek ravshan. Zero, erkak kishida ham hayo tushunchasi va tuyg'usi bo'lishligi oilani yanada mustahkam bo'lishiga hizmat qiladi. Erkaklarni mahram nima, nomahram nima? haqida tushuncha yetishmaydi. Shu boisdan qanchadan qancha oila va farzandlar zino, adabsizlik, hayosizlik oqibatida azob-uqubatga qolishmoqda. Chunki halqimizda shunday gap bor: "Er kishining zino qilishi ayol va farzandga uradi", degan asosli gaplar bor. Hikoh nafaqat bir imom va hikoh shartnomasi asosida emas, balki ikki insonning bir birlariga bo'lган sadoqati, ishonchi, vafosi, mehr-muhabbati, o'zaro hurmati, asosida qurilishi lozim. Chunki bir nikoh shartnomasi orqali er va hotin bir juft bo'lishi qiyin. Erkak va ayol turmush qurgandan so'ng oilani or-nomusi, farzandlarni islomiy tasavvuf bilan kamol toptirish uchun birday ma'suldirlar. Jamiyatimiz orasida ba'zi anglish tushunchalar mazjud. Shulardan bittasi, "Erkak kishi ko'chani odami" degan tushunchalar halqimiz orasida ko'p uchratishimiz mumkin. Nega?, bundan ko'rindiki, erkak kishi ko'chada hohlagan ishini qilib, oilasiga harom va zinoni aralashtirish mumkin degani emas. Erkak kishi Alloho bandasimasmi?, u birinchi navbatda ohirat uchun, oila sha'ni uchun kurashimaydimi? Hozirgi kunda zino keltirib chiqaradigan yo'llar ko'p. dunyo taraqqiy etyapti, rivojlanyapti, yangi yangi texnikalar ishlab chiqarilayapti. Masalan, telefonni olaylik. Bu texnika orqali qanchadan qancha oila barbot bo'lyapti. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali oilali erkak tanishish, suhbatalshish va nomahram ayol bilan turli mavzulardan suhbat qurish orqali asta sekin katta zinoga aylanib ketmoqda. Islom dini bu ishlarni qattiq qoralaydi. Chunki, "Nomahram qizlarga gap otish gunohdir. Sababi islam shariatida zino harom qilingan. Zinoning asli va unga olib boruvchi vositalar ham haromdir. Jumladan, nomahramlarga hirs bilan qarash, hojatdan tashqari tikilish harom. Qizlarga gap otishning zarari ularga shahvat bilan nazar solishdan ko'proq. Sababi gap otishdan oldin ularga nazar solinadigan va gap bilan ularni yomon yo'lga boshlash rajasi miyada charx uradi. Xullas, poklikni targ'ib qiluvchi muqaddas dinimiz ayollar huquqini to'liq himoya qiladi va zinoning oldini olish maqsadida nomahramlarga qarash, ular bilan gaplashish, ushslash o'pish kabi ishlarni zinoga tenglashtiradi. Bu haqida hadis bor. "Abu Hurayra roziyallohu anhu Nabiy sallallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi: Odam bolasiga zinodan bo'lган nasibasi yozilgan. Buning yetishida shubha yo'q. Ikki ko'zning zinosi nazar solish, ikki quloqning zinosi eshitish tilning zinosi gapirish, qo'lning zinosa ushslash, oyoqning zinosi qadam tashlashdir. Qalb rag'bat qiladi va hohlaydi. Farj esa uni tasdiqlaydi yoki yolg'onga chaqiradi"²"

Oilali bo'lganlar bir birlariga oxirat uchun ko'makchi bo'lishlari maqbul yo'l. Buni qanday yo'l ekanini tushuntirib o'taylik. Ya'ni nomoz o'qshga, ro'za tutishga, ibodat qilishda zinodan tiyilishda bir biriga yordamchi bo'lish va savobga ergashishlarini bir birlariga muallimlik qilishlikdir. Ya'ni jannatda ham birga bo'lishlikni bir birlariga davat etadigan juftlik haqiqiy boylikga ega bo'ladilar. Bu esa savratdir. Hazrati payg'ambarimiz shunday deydilar: "Dunyoning savrati oltin-kumush yoki shunga o'xshash narsalar emas! Asl savrat ushbulardir:

¹ Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti gumanitar yo'naliishlar bo'yicha chet tillari kafedrasи o'qituvchisi

² Internet sayt: Muhlis.uz



Lisanan zakiron- insonning zokir- zikr etuvchi bir lisoni, tili bo'lsin.

Va qalban shakiron- va shukronaga to'la, shukr qiluvchi bir qalbi bo'lsin.

Va zavjatan to'iynu ala axiroti- va oxiratiga yordami tegadigan bir jufti haloli-zavjası, ayoli bo'lsin insonning!”³

Bundan ko'rindiki erkakmi yo ayol ikkalasi ham birdek ma'sul bo'lishi zarur. Quyidagi hikoyada faqat bir sutga ziyan yetdi. Bunga faqat ukaning bir momahramga qarashini o'ziyoq kifoya qildi. Endi anashu ziyo oila yoki farzand kelajagi, ma'naviyati, xulq-atvori yoki sog'lig'iga ziyon yetishi muqarar. Buni bugungi zamon odamlari anglab yetishlari va o'zlariga kerakli hulosa qicharish zarurati bor. Tabiiyki Allohnari farishtalari har bir ishni yozib yuradi. Shunday ekan insonning or-nomus, hayo, uyat tuyg'lariga muhtojligi bor. Agar bu ehtiyojlarga inson to'yintirilmasa buning oqibati natijasida nima sodir bo'lishligini bayon qilindi. Zinodan tiyilish va uning oqibatlari to'g'risida diniy manbalarda kerakli ta'limot berib o'tilgan. Zinodan tiyilishning eng mihim ahamiyatga ega yo'llaridan biri insonning islomi tasavvuf hamda insoniy hayoga qondirilgan bo'lishidir. Shu asnoda Payg'ambar Muhammad sallallohu alayhi va sallam shunday buyuradilar: “Hayo iymondandir” degan ekanlar. Boshqa adabiyotlarda ham hayo masalasiga doir ko'plab manbalar keltirilgan. Masalan, “Bizda uyalmoq go'zal narsa; er kishilarda ham go'zal, ayollarda go'zal narsadir uyalmoq. “Hayo go'zaldir va lekin ayol kishida bo'lsa, yanada go'zalroqdir!”. .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmud As'ad Jo'shon “Tasavvuf va go'zallik” T.: 2004.
2. Tasavvuf haqida tasavvur Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Toshkent; 2019 yil
3. Internet sahifalari; hikmatlar.uz;<https://hikmatlar.uz>>quote
4. Ismoilova, H. (2022). Commonwealth of Women in Folklore and Written Literature. *Eurasian Research Bulletin*, 8, 22-24.
5. Ismoilova, H. (2022). Islamic Approaches to the Image of Women. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 541-543.
6. Himoyat, I. (2019). THE ROLE OF LITERATURE, ART AND FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING WOMEN'S PARTICIPATION IN SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
7. Himoyat, I. (2019). THE ROLE OF LITERATURE, ART AND FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING WOMEN'S PARTICIPATION IN SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
8. Himoyat, I. (2019). THE ROLE OF LITERATURE, ART AND FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING WOMEN'S PARTICIPATION IN SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12)
9. Ismoilova, H. A. The Expression of the Husband's Duties to His Wife and the Woman's Place in Religion and Society.
10. Ismoilova, H. (2022). Commonwealth of Women in Folklore and Written Literature. *Eurasian Research Bulletin*, 8, 22-24.
11. Ismoilova, H. (2022). Islamic Approaches to the Image of Women. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 541-543.
12. Ismoilova, H. (2022). Islamic Approaches to the Image of Women. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 541-543.

³ Mahmud As'ad Jo'shon “tasavvuf va go'zallik” T.: 2004. 180 181 182.B.b



13. Ismoilova, H. (2022). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA AYOLLARNING TASNIFI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 422-425.
14. Ismoilova, H. (2022). Portrait of Women's Place in the Family in Fiction Literature. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 68-72.
15. Ismoilova, H. (2022). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA AYOLLARNING TASNIFI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 422-425.

